

Anvarova Sarvinoz Axadjon qizi
Fargʻona davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TALQINI

ANNOTATSIYA: "Lison ut-tayr" yirik falsafiy-tasavvufiy doston boʻlib, Alisher Navoiy bu asarda majoziy obrazlar yaratib ularning ramziy sarguzashtlari orqali butun olam haqida oʻz qarashlarini ifoda etgan. Bu asarda insonga boʻladigan his-tuygʻular, sifatlarning hammasi ramziy obrazlar boʻlmish qushlarda boʻladi. Yaʼni Navoiy davr muhitidan kelib chiqib oʻz fikrlarini toʻgʻridan-toʻgʻri insonlar orqali emas, balki mana shunday ramziy obrazlar orqali bayon qilgan, shu bilan birga odamlarning xulq-atvorini real hayotiy lavhalarini shu kabi xususiyatlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tasvirlaydi. Bu maqolada ushbu yirik irfoniy dostonning ramziy obrazlariga toʻxtalib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: "Lison ut-tayr", "Mantiq ut-tayr", "Tayr qissasi", Semurgʻ, Hudhud, qushlar, ramziy obraz, vodiylar.

АННОТАЦИЯ: «Лисон ут-Таир» — великий философско-мистический эпос, в котором Алишер Навои выразил свои взгляды на весь мир через их символические приключения, создав образных персонажей. В этом произведении все эмоции и качества человека встречаются в птицах, которые являются символическими образами. То есть, исходя из обстановки того времени, Навои выражал свои мысли не напрямую через людей, а через такие символические образы, и в то же время он описывает положительные и отрицательные стороны поведения людей в сценах реальной жизни. В данной статье речь пойдет о символических образах этого великого мистического эпоса.

ANNOTATION: "Lison ut-Tair" is a great philosophical-mystical epic, in which Alisher Navoi expressed his views on the whole world through their symbolic adventures by creating figurative characters. In this work, all the emotions and qualities of a person are found in birds, which are symbolic images. That is, based on the environment of the time, Navoi expressed his thoughts not directly through people, but through such symbolic images, and at the same time, he describes the positive and negative aspects of people's behavior in real-life scenes. This article will focus on the symbolic images of this great mystical epic.

Kirish. Butun dunyoyimiz gʻaroyibotlarga toʻla, ayniqsa, undagi kichik olamlar va ularning moʻjizalari kishini oʻziga jalb etmay qolmaydi. Shunday olamlardan biri bu bolalar olami hisoblanadi. Bolalikda inson har narsaga qiziqadi, oʻrganishni xohlaydi. Alisher Navoiy bolaligida bilamizki, bilimga chanqoq, zehni oʻtkir va oʻqigan kitoblarini tezda yodlab olardi. Navoiy bolaligida ustozlari taʼlim berish jarayonida bolalarning zehnlari oʻtkir qilish maqsadida diniy kitoblardan tashqari badiiy kitoblarni oʻqitar edi. Navoiyning bolaligida koʻplab badiiy asarlar ichida uning koʻngliga moyil boʻlgani faqatgina Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari edi. Farididdin Attor bu asarni shunchalik sodda va ravon bolalar oʻqisa ham tushunadigan qilib yozgandiki, yosh Alisher buni bir marta oʻqishda yodlab olar edi. Bu haqida Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining yozilish sabablaridan keltirib oʻtgan. Davomida yana yozadiki, meni bu kitobga boʻlgan ishqim shu qadar baland ediki, u kitobning mazmuni tushunib bu dunyodagi bemaʼniliklaridan ketish kerak degan xulosalar qilardim va bu gaplarimni otanonam bilgach bu kitob bolaga yomon taʼsir qilyapti deya kitob haqida xattoki fikrlashni ham taʼqiqlab qoʻyishgan edi deb yozadi. Ushbu kitobga boʻlgan ishq "Lison ut-tayr" dostonini yozishga turtki boʻladi va javob tariqasida yaratadi.

Ramziy hikoyat va obrazlar yaratish tarixiy kalib chiqishi miloddan oldingi yillar borib taqalsa ham, Sharq mumtoz adabiyotida birinchi bo‘lib qushlar qissasini Abu Ali ibn Sinoning "Tayr qissasi" ya'ni "Qushlar qissasi" risolasi orqali ko‘rishimiz mumkin. Bu uchala asarning ramziy obrazlari bir-biriga o‘xshab ketsa ham ularning syujeti va kelib chiqadigan mazmuni farq qiladi. Bulardan bittasini misol qilib keltiradigan bo‘lsak, "Tayr qissasi" asarida Hudhud obrazi bo‘lmagan F. Attor esa bu obrazni va Semurg‘ obrazini o‘z dostoniga kiritadi va mukammal syujet holiga keltiradi. F. Attor asarida Semurg‘ning nomi Anqo bo‘lgan. Shu kabi o‘xshashlik va boshlashlik kabi holatlarga duch kelishimiz mumkin.

"Lison ut-tayr" asarning qisqacha syujeti haqida gapiradigan bo‘lsak, 176 kichik-kichik boblardan, qushlarning savol-javoblar va har bir voqeadan keyin beriladigan kichik hikoya va masalalardan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 13 bob bo‘lib asosiy qism 14-bobdan boshlanadi. Dostonning boshlanishi qushlarning o‘zlari uchun boshliq saylashlaridan boshlanadi. Janjal boshlanayotgan paytda qushlardan biri bo‘lgan Hudhud Semurg‘ qushi haqida ularga aytib beradi va qushlarning hammasi Semurg‘ qushini izlashga yo‘lga tushishadi. Qushlar bu maqsad yo‘lida juda ko‘p mashaqqatlarga duch kelishadi, noroziliklar ko‘payadi va orqaga qaytib ketish fikriga kelib qolishganida, Hudhud ularning norozi bo‘lgan narsalariga qarshi chiqib bu narsalar o‘tkinchi, chiroy ham sodiqlik ham o‘tib ketishini ularga hikoyalar orqali tushuntirib beradi. Qushlarga ayniqsa "Shayx Sa‘no" hikoyasi ta’sir qiladi va biz Semurg‘ni topamiz degan maqsadni oldiga qo‘yishadi. Qushlar yetti vodiylardan oshib o‘tadilar va bu orada qushlarning ham soni kamayib boradi. Oxir oqibat qushlarning soni 30 ta qoladi va o‘zlari Semurg‘ bo‘lishadi. Bilamizki, Semurg‘ so‘zi forschadan tarjima qilganda 30 qush degan ma’noni anglatadi.

Asosiy qism. Muallif asar yozar ekan undagi obrazlarni, har bitta detalni bejizga qo‘llamaydi. Asarda oddiy bir o‘rinda kelgan obrazni ham asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonidagi obrazlar va undagi detallarga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, dostonning asosiy obrazi bu Semurg‘ bo‘lib hamma voqealar unga bo‘liq holda ifoda etiladi. Semurg‘ qushini tarixini ko‘radigan bo‘lsak, bu xalq og‘zaki ijodidagi afsonaviy qush hisoblanadi. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo‘lgan bo‘lib, keyinchalik turli xalqlarning asarlarida dostonlarida ramziy obraz sifatida kiritilgan. Afsonalarda keltirilishicha qushlar har qanday qiyin vaziyatga tushib qolishidan qat’iy nazar Semurg‘ga murojaat qilishar edi va bu qush hamma muammoni hal qilishiga barcha qushlar ishona edi. Qandaydir hodisadan keyin Semurg‘ yo‘qolib qolar ekan va qushlar uni topa olmay havotirga tushishganida bir qush uni tog‘lar orasida yashayotganidan xabar berar ekan va qushlar 7 chuqur vodiylarni oshib Semurg‘ga intilishga harakat qilar ekanlar. Qushlar bora-bora kamayib Semurg‘ning oldiga 30 ta qush bo‘lib borishadi. Shuning uchun ham afsona va rivoyatlarda Semurg‘ "yetti zulmat ichi" dan olib chiquvchi fantastik qush sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida bu qush Haqqa yetishish timsoli sifatida asarga kiritilgan hisoblanadi. Dostondagi Hudhud qushi obrazi esa piri komil ya'ni odamlarni hidoyatga boshlovchi murshid sifatida talqin qilinadi. Ba’zi manbalarda Hudhudni salbiy obraz sifatida tasvirlanadi. Chunki bu qush ko‘p qushlarni o‘limiga sabab bo‘lgan deya aytilgan. Aslida esa Hudhud qushi dostonidagi qushlarni komillikka chorlagan ularni haqqa intilishlarini istagan. Ayniqsa qushlarning toqatsizlik bilan qaytishni xohlaganida ularga hikoyatlar orqali donolik bilan tushuntirgan. Qushlar bilan savol-javoblar ham Hudhudning donoligini bilsak bo‘ladi. Asardagi yana ba’zi ramziy timsoldagi qushlarni ham keltirishimiz mumkin. Masalan, qushlar safini birinchi bo‘lib to‘ti tark etadi. Uning ramziyligi shundaki to‘ti dunyo molini sevuvchi qush sifatida tasvirlanadi. U hech ham nochorlikka chiday olmaydigan doim rohat-farog‘atda yashagani sababli bunday bardoshlarga chiday olmagan. Bu nafs ortidan quvuvchi inson degan ramziy xulosa kelib chiqadi. Yana bir qush bulbul foniy dunyo oshig‘i obrazi hisoblanadi. U gulga oshiqligini va usiz yashay olmasligini bildiradi va qushlar safini tark etadi. Hudhud bulbulga hikoya orqali gulning chiroyi vaqtinchalik u ham bir kun so‘ladi deb donolik bilan tushuntiradi. Bundan tashqari dostonidagi burgut obrazi u maqsadsiz kuch-qudrat sifatida gavdalanadi. Uning ham kuchi vaqtinchalik yillar o‘tgan sari har

qanday kuch yengiladi. Hudhud hikoyalari orqali qushlar hech narsa abadiy emasligini faqat Haq taologina abadiy bo'lishini bu dunyo foniy ekanligini yo'l davomida o'rgatib boradi.

Bundan kelib chiqadiki, Haqqa yetishish da'vosi bilan yo'lga tushishi mumkin, lekin hamma ham bu yo'ldagi imtihon va sinovlarga bardosh berib o'ta olmas ekan.

Dostonning yana bir e'tiborli joylaridan biri bu 7 vodiyning qo'llanishidir. Qushlarning mashaqqati mana shu 7 vodiyan boshlanadi. Birinchi vodiya bu—Talab vodiysi bo'lib, qushlarning Semurg'ga intilishlaridagi talab hisoblanadi. Har inson bir ishni boshlashdan oldin unga talab bo'lmasa yoki ehtiyoj bo'lmasa uni qilmaydi va nihoyalamaydi. Ikkinchi vodiya—Ishq bo'lib, unda qushlar Semurg'ning ishqiga g'arq bo'lishadi. Ishq yo'lida jismdan vos kechish, yor uchun o'lmoqlikni arziyas deb bilishdir. Uchinchi vodiya—Ma'rifat vodiysi, bu vodiya kelganlari sari Semurg'ni taniy boshlaydilar. Allohni tanish, bilish yo'li har bir inson uchun o'ziga xos bo'lib, har qanday yo'ldan bormasin har birining maqsadi bir—Yaratganni tanishdir. To'rtinchi vodiya—Istig'no ya'ni ehtiyojsizlik vodiysi bo'lib, qushlarning ehtiyoji va Semurg'ning ehtiyojsizligi hisoblanib, har bir odam ehtiyojsizlikni anglab yetish zamiri ko'zda tutilgan. Beshinchi vodiya—Tavhid ya'ni birlik vodiysidir. Bunda butun olamning birligi faqat Haqligini anglash hisoblanadi. Oltinchi vodiya—Hayrat vodiysi bo'lib, bunda barcha qushlar Semurg'ning ulug'vorligidan hayratga tushib o'zligini unitishga ishoradir. Eng so'nggi vodiya faqr-u fano vodiysi, o'zlikdan vos kechish Semurg' bilan birlashish, abadiylikka qaytish mohiyati mujassam. Har bir vodiya ta'rifidan so'ng unga mos hikoyatlar keltirilgan va bu orqali vodiya mohiyatini ochib bergan.

Bilamizki, tasavvufning masalasi Haqni tanish va unga intilish yo'lida nafsni yengish hisoblanadi. Nafsni yengan kishi albatta komil inson darajasiga yetishadi. Dunyoning barcha mavjudoti Allohning iznidadir. Shuning uchun ham inson o'zida mana shunday zarrani kashf etmog'i va buning oqibatida uzoq va mashaqqatli yo'lni sabr bilan bosib o'tmog'i darkor.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida aytganimizdek har bir ijodkor asaridagi obrazini bejizga kiritmaydi, unga alohida nom bermaydi. Alisher Navoiy bu asarni yozishdan oldingi barcha turkiy asarlariga Navoiy taxallusini qo'llaydi. Lekin aynan mana shu "Lison ut-tayr" asarida Foniya taxallusini bilan ziynatladi. Chunki Foniya Navoiyning orzusidir. Foniya Alloh ishining bosib o'tadigan yo'lining mashaqqati qancha qiyin bo'lmasin, lekin olib boradigan manzili kamolot cho'qqisidir. Shuning uchun ham Navoiy bu taxallusni ham ramziy ma'noda bu asarda qo'llagan. Ijodkorning g'oyasini o'quvchi tushunib yetishiga ham oson bo'lgan. Hammasining o'zini yashirgan ramzi va ifodasi bo'ladi. Ijodkor esa bu sir ya'ni muallif nima deyayotganini ochish uchun o'quvchining o'ziga ixtiyor aylaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr, nasriy bayoni: Sharafiddin Sharipov 110 bet.
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik darslik. – T.: Tamaddun, 2019.-520 bet.
3. Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi.—"O'qituvchi", 1965.